

2025-yilda global etilen ishlab chiqarish quvvati talabdan 22 million tonnaga oshadi

// 25.03.2025

<https://uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/2025-yilda-global-etilen-ishlab-chiqarish-quvvati-talabdan-2>



2025-yilda dunyoda etilen ishlab chiqarish quvvati 74,2 million tonnaga yetishi mumkin. Yil davomida jarayon 11,4 million tonnaga o'sishi kerak.

Shu bilan birga, etilenga global talab 7 million tonnaga o'sib, 52,6 million tonnagacha yetishi mumkin. Bloomberg o'z hisobotida shunday taxminlarni keltirmoqda.

Bloomberg hisob-kitoblariga ko'ra, ortiqcha quvvat 17,2 dan 21,6 million tonnagacha oshadi. Yangi quvvatlarning aksariyati Xitoyda ishga tushiriladi.

Unga parallel ravishda eskirgan ishlab chiqarish korxonalari yopilmoqda. Eng ko'p korxonalar yopilishi Yevropada kuzatilmoqda. 2023 va 2024-yillarda Yevropa kimyo sanoati kengashi (Cefic) ma'lumotlariga ko'ra, Yevropada 21 ta kimyoviy ishlab chiqarish obyektlari yopilishi e'lon qilindi.

Ulardan 26 foizi olefinlar segmentiga to'g'ri keladi, shu jumladan etilen va propilenni krekinglash bo'yicha quvvatlar ham.

"O'zkimyosanoat" AJ Matbuot xizmati